

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**ANARBOYEV IQBOLJON IBROXIMOVICH**

**QUYOSH NURLARI BILAN QIZDIRIB OLINGAN KREMNIYNING  
ELEKTROFIZIK VA TERMOELEKTRIK XOSSALARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PHD)**

**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
физико-математических наук**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
physical and mathematical sciences**

**Anarboyev Iqboljon Ibroximovich**

Quyosh nurlari bilan qizdirib olingan kremniyning elektrofizik va termoelektrik

xossalari..... 3

**Анарбоев Икболжон Иброрхимович**

Электрофизические и термоэлектрические свойства кремния  
полученного нагреванием солнечными излучениями.....

23

**Anarboyev Iqboljon Ibroximovich**

Electrophysical and thermoelectric properties of silicon obtained by solar  
radiation .....

41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**ANARBOYEV IQBOLJON IBROXIMOVICH**

**QUYOSH NURLARI BILAN QIZDIRIB OLINGAN KREMNIYNING  
ELEKTROFIZIK VA TERMOELEKTRIK XOSSALARI**

**01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PHD)**

**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2017.2.PhD/FM100 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Olimov Lutfiddin Omanovich**

fizika-matematika fanlari doktori., professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Onarqulov Karimberdi Egamberdiyevich**

fizika-matematika fanlari doktori., professor

**Abdulazizov Baxrom Toshmirza o'gli**

fizika-matematika fanlari doktori., professor

**Yetakchi tashkilot:**

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil soat 1200 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 225-1007; (99869) 225-76-75, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Namangan muhandisliktexnologiya instituti 3-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel: (99869) 225-10-07.)

**U.I. Erkaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash raisi, f.-m.f.d.,

professor

**A.A. Abdukarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**N.Yu. Sharibayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,

f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Bugungi kunda jahonda yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasining rivojlanishida polikristal kremniy materiallarini tadqiq etish yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bunday turdagi materiallarning asosiy xarakteristikalarini murakkab shakldagi donadorlik va donadorliklararo chegara sohalarining morfologik xususiyatlari va fizik parametrlariga bog‘liq bo‘lib, ularni boshqarish orqali yuqori samarali energiya o‘zgartirgich qurilmalari yoki generatorlari yaratishga e‘tibor kuchaymoqda. Hususan, issiqlik ta‘sirida donadorliklararo chegara sohalarida temperaturalar farqi hisobiga Zeebek koefitsienti ortishi yoki bu sohada fononlar yutilishi bilan issiqlik o‘tkazuvchanlikning kamayishi generatorlarning termoelektrik ko‘rsatkichini orttirishga olib keladi. Bu sohada quyosh nurlari bilan qizdirib olingan polikristal kremniyning mu‘ayyan sharoitlarda namoyon bo‘luvchi fizik xususiyatlarini tadqiq etish ilmiy texnika sohasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida asosiy e‘tibor kukunsimon zarrachalarni issiqlayin preslash orqali energiya o‘zgartirgich uchun mo‘ljallangan polikristal tuzilmalari ishlab chiqishga e‘tibor qaratilgan. Ushbu usullarda sintezlash, presslash hamda yuqori haroratlarda termik ishlav berish kabi yuqori texnologiyalar qo‘llanilishi yakuniy mahsulot tannarhining ortirishga, tashqi muhitdan kirib qoluvchi begona kirishma atomlarining boshqarib bo‘lmazligi esa sof polikristal tuzilmalar olishda samarasiz hisoblanadi. Natijada, bu noqulayliklar yakuniy energiya o‘zgartirgich materiallarining asosiy termoelektrik parametrlari Zeebek koefitsienti va elektro‘tkazuvchanlikning bir me‘yorda o‘sishini hamda issiqlik o‘tkazuvchanlikning kamayishini ta‘minlab bo‘lmaydi. Shu jihatdan, quyosh nurlarini qo‘llagan holda kremniy olish va ularning mu‘ayyan sharoitlarda namoyon bo‘luvchi fizik xususiyatlarini tadqiq etish orqali polikristal kremniyli energiya o‘zgartirgichlar yaratish dolzarb hisoblanadi.

Keyingi yillarda Respublikamizda granullangan kremniyli termoelektrik materiallar olish va ularning elektr va termoelektrik xarakteristikalarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalariga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish”<sup>1</sup> bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda granullangan kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali polikristal kremniyli energiya o‘zgartirgich materiallari ishlab chiqish va ularning mu‘ayyan sharoitlarda namoyon bo‘luvchi fizik xususiyatlariga bog‘liq fizik jarayonlarni tadqiq etish muhim masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son “Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 9-apreldagi PQ-5063-son "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" kabi qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, energiya tejamkor usullarni qo'llagan holda chiqindi issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantirishga mo'ljallangan polikristal kremniy ishlab chiqish va ularning mu'ayyan sharoitlarda namoyon bo'luvchi fizik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim masalalardan hisoblanadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligi rivojlanishi»ning ustuvor yo'nalishiga doir bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mikro va nano o'lchamli polikristal kremniy asosida quyosh elementlari, yarimo'tkazgichli termoelektrik materiallar, yarimo'tkazgichli asboblarni yaratish va ularning elektrofizik, fotoelektrik va termoelektrik xarakteristikalarini tadqiq qilishda ko'plab xorijlik olimlar tomonidan ilmiy markazlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan amerikalik (T.P. Hogan, D. Kendig, A. Shakuri, A.I. Xochbaum. Devid Maykl Rou., H. Julian. Goldsmid<sup>2</sup>), germaniyalik (M. Asen-Palmer, E. Gmelin, M. Kardona, J. Debur, S. Stive, Sh. Folker, YE. Muller, K. Zabreki), gretsiyalik (A.Valalaki, A.G.Nassiopoulou), yaponiyalik (L.Yan, N.Yan, B. Li, P.Juud, M.Oxta, Chongpu Zai, S. Sano, Sh. Yamamoto), rossiyalik (Yu. M .Smirnov, I.A.Kaplunov, V.I.Smirnov, A. P. Jernov, A. V. Inyushkin, A. Taldenkov, V.I. Ojogin, Dmitriyev, I.P. Zvyagin, YA.B. Magomedov, M.I. Fedorov, M.M. Gadjaliyev, V.V. Kaminskiy) va boshqalar turli texnologiyalardan foydalangan holda polikristal kremniy olish, uning termoelektrik xususiyatini oshirish va samaradorligi yuqori bo'lgan qurilmalar hamda integral mikrosxemalarda qo'llash ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, D.Kexill polikristal kremniyda issiqlik tasirida hosil bo'luvchi xususan, termoelektrik xususiyatlarini haroratga bog'liqligini o'rgangan. L.Veber, E.Gmelin polikristal yarimo'tkazgichni issiqlik tasiridagi zaryad ko'chishi bilan bog'liq jarayonlarni  $30 < T < 300$  K oralig'ida solishtirma qarshilikning kamayishi zaryadlar harakatchanligining ortishiga olib kelishini va elektr o'tkazuvchanlikga ta'sirini o'rganishgan. P.Juud, M.Oxta, Chongpular yarimo'tkazgichlarning issiqlik o'tkazuvchanligini kamaytirish usullari orqali termoelektrik xossasini ortishiga erishishda turli o'lchamdagi polikristal kremniydan termoelektrik material olishda

---

<sup>2</sup> Disertatsiya mavzusi bo'yicha halqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagilar asosida amalga oshirildi: Kanatzidis, Mercouri G. n. Mahanti, S.D. Hogan, Timothy P. Thermoelectric materials-Congresses. Title. Series Book 2021. Devid Maykl Rou. Materials, Preparation, and Characterization in Thermoelectrics: Thermoelectrics and Its Energy Harvesting. Book .April 25, 2012. H. Julian. Goldsmid. Introduction to Thermoelectricity Book © 2016

foydalangan. L.Yan, N.Yan, B.Li lar nanostrukturali kremniy tuzilmalarining fizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning o‘zaro birikishdagi ayrim muammolarni bartaraf etish bilan polikristal kremniy olish mumkinligini ta’kidlashgan. Yarimo‘tkazgichlarni turli hajmdagi mikro va nano tuzilmalarni hosil qilishda A.P.Jernov, A. V. Inyushkinlar kukunli texnologiya asosida polikristal kremniy olish usullarini ishlab chiqishgan.

O‘zbek olimlari akademiklar M.S. Saidov, A.Mamadolimov, M.Baxadirxonov, S.Z.Zaynobiddinovlar nano zarralar va nano texnologiyalar fizikasining rivojlanishiga katta hissalarini qo‘shishdi. A.M. Qosimoxunov, A.YU. Leyderman va A.S. Saidov, B.M. Abduraxmanov, L.O. Olimov, N.A. Matchanov turli usullarda olingan mono va polikristal Si ning donadorlararo chegaralarida hosil bo‘luvchi elektrofizik va fotoelektrik xossalarni keng yoritib berish bilan birgalikda, donadorliklararo chegaralarda joylashgan polikristal atomlar tuzilishining yangi modelini taklif etishgan, shuningdek, B.M. Abduraxmanov, L.O. Olimov, N.A.Matchanov, M.A.Adilovlar ilk bor mikro va nano o‘lchamli polikristal kremniyda kirishmali issiqlik teplovoltai va fotovoltai effektlar hosil bo‘lishini aniqlashgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon mashinasozlik instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № BF3-003 «Kirishmali voltaik effektga asoslangan yarimo‘tkazgich negizli mikro va nanoo‘lchamli noan’anaviy va muqobil energiya manbalarini yaratish» (2017-2020 yy.) hamda № UZB-Ind-2021-92 “Mikro- va nanoo‘lchamli (granullangan) yarimo‘tkazgichli termoelektrik materiallarini ishlab chiqish va joriy etish” (2021-2023 yy.) mavzusidagi tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** kremniy zarrachalarini quyosh nurlari yordamida qizdirib biriktirish orqali olingan polikristal kremniyning elektrofizik va termoelektrik xarakteristikalarini hajmiy nuqson va lokallashtirilgan kirishmali holatlariga bog‘liqlik qonuniyatlarini aniqlash, ular asosida termoelektrik materiallar olishning fizik mexanizmlari hamda texnik yechimlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

- Kukunli texnologiya asosida kremniy zarrachalarini tayyorlash va ularni quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali polikristal kremniy namunalari olish texnologiyasini ishlab chiqish va namunalarni tayyorlash;

- Quyosh nurlari bilan qizdirib olingan polikristal kremniyning mikrotuzilmasi va morfologiyasini o‘rganish, kremniy zarrachalari birikishida kirishmali holatlar va nuqsonlar hosil bo‘lish mexanizmlarini oydinlashtirish;

- T~300÷800 K polikristal kremniy hajmiy nuqsonlari va donadorliklararo chegara sohalarining zaryad ko‘chish jarayonlariga ta’sirini aniqlash;

- T~300÷800 K harorat o‘zgarishi jarayonida kirishmali holatlarda tok va kuchlanish hosil bo‘lish mexanizmlarini oydinlashtirish;

- T~300÷800 K harorat oraliklarida polikristal kremniyning termoelektrik xossalarni o‘rganish;

• Kremniy zarrachalari asosida termoelektrik materiallar olishning mexanizmlarini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Si zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali olingan polikristal kremniy namunalari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali olingan polikristal kremniyning mikrostrukturasi, elektrofizik va termoelektrik xossalari o'rganish va ularda zaryad ko'chish mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Qo'yilgan vazifalarni yechish uchun quyidagi usullar qo'llanilgan: Kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish, orqali polikristal kremniy olish va morfologiyasini tadqiq qilish, harorat o'zgarishi jarayonida namunalarning solishtirma qarshiligini, zaryad tashuvchilar harakatchanligi va kontsentratsiyasini aniqlashning ikki va to'rt zondli hamda modernizatsiya qilingan Vander-Pau usullari foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat, ilk bor,:

kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan kremniyning erish haroratidan 20 % past ( $T \sim 1350$  K) haroratda qizdirib biriktirish vaqtini boshqarish begona kirishmalardan holi sof polikristal kremniy hosil qilishi asoslangan;

$T \leq 575$  K da polikristal kremniy old sirtida elektro'tkazuvchanligi hamda zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi ortib so'ngra kamayishi, aksincha, orqa tomoni elektro'tkazuvchanligi hamda zaryad tashuvchilar kontsentratsiyasi kamayib so'ngra ortishi mos holda, old va orqa sirt soha donadorliklararo chegaralarida lokallashgan tuzoqlarda zaryad tashuvchilar ushlanishi va ozod bo'lishiga bog'liqligi aniqlangan;

$T \sim 300 \div 800$  K da donadorliklararo chegaradagi lokallashgan tuzoqlarda zaryad tashuvchilar ushlanishi hisobiga ularning yashash vaqtining kamayishi polikristal kremniyning har ikki old va orqa tomonida zaryad tashuvchilar harakatchanligining 0,0245 dan 0,015  $\text{sm}^2/\text{Vs}$  gacha kamayishiga olib kelishi aniqlangan;

donadorliklararo chegaradagi potensial to'siq balandligi  $\phi \sim 0,39 \div 1,0$  eV oraliqlarida o'zgarib,  $T = 300 \div 775$  K da old yuza sirt sohasiga nisbatan orqa yuza sirtida  $\phi \sim 0,061$  eV farq bilan o'zgarishi aniqlangan;

$T \sim 300 \div 800$  K da donadorliklararo chegara sohalardagi kirishmali holat va nuqsonlarda elektron-kovak juftliklarining hosil bo'lishi bilan  $U_q$  va  $I_q$  hamda  $U_f$  va  $I_f$  paydo bo'lishi aniqlangan;

kremniy zarrachalari negizida tayyorlangan polikristal kremniy solishtirma termoeuykkasi 400 K da 800-1000 mikrovolt/gradus, issiqlik o'tkazuvchanligi esa 0,12  $\text{Vt/m}^*\text{K}$  ekanligi, bu esa monokristal kremniydan mos holda, 20 marta katta va 1240 marta kichikligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali kremniy zarrachalari negizida qalinligi 2,5  $\div$  3,0 mm, donadorlik o'lchami 10  $\div$  20 bo'lgan ikki tuzilmali polikristal kremniy namunalari ishlab chiqilgan;

kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali chiqindi issiqlik energiyasini elektri energiyasiga aylantirishga mo'ljallangan polikristal tuzilmali termoelektrik material ishlab chiqarish mumkinligi ko'rsatilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib polikristal kremniy olish texnologiyasi, uning mikrotuzilmasi va morfologiyasini, shuningdek, elektrofizik hamda termoelektrik xarakteristikalari va parametrlarini tekshirishda standart va keng qo'llaniladigan zamonaviy ilmiy va texnologik metodlardan foydalanilganligi bilan izohlanadi. Natija va xulosalar fizikaviy tasavvurlarga asoslangan nazariy va eksperimental natijalar bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib ikki strukturali polikristal kremniy olish texnologiyasi, donadorliklararo chegara sohalarida zaryad ko'chish jarayonlari, uning mikrotuzilmasiga bog'liqligi va termoelektrik xarakteristikalariga bog'liqligi haqida kengroq tasavvur xosil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali termoelektrik materiallarni tayorlash usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Quyosh nurlari bilan qizdirib olingan kremniyning elektrofizik va termoelektrik xossalari tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

quyosh nurlari yordamida kremniy zarrachalarini qizdirib biriktirish orqali "Termoelektrik material tayyorlash usuli" ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan (O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk agentligining foydali model uchun Patenti Uz FAP 01593, sana 25.02.2021). Ishlab chiqilgan usul kremniy zarrachalari negizida polikristal tuzilmali issiqlik energiyasi o'zgartirgichini yaratish imkonini bergan;

granullangan kremniy zarrachalari va ularni quyosh nurlari bilan qizdirib quyish texnologiyasini ishlab chiqishda olingan ilmiy natijalari "Andijon kabel" aksionerlik jamiyati O'zbekiston Rossiya qo'shma korhonasida mis granularining xossalari va ular asosida elektrokabellar quyish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishda qo'llanilgan ("O'zeltexsanoat" aksionerlik jamiyatining 2022 yil 12 avgustdagi № 04-3/1836- sonli ma'lumotnomasi). Ishlab chiqilgan usul mis elektrokabellarini oksidlanish holatini 50% dan 80% gacha boshqarish hamda ularda yuz beruvchi fizik jarayonlarni tahlil qilish imkonini bergan;

granullangan kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali kremniy tuzilmalari olishda olingan ilmiy natijalari Qirg'iziston respublikasi Osh Davlat universitetining olimlari tomonidan fundamental va amaliy loyxalarida qo'llanilgan (Osh davlat universitetining 2022 yil 25 yanvardagi №150 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy natijalardan foydalanish temperatura o'zgarishi jarayonida polikristal yarimo'tkazgichli energiya o'zgartirgichlarning ishchi parametrlarini orttirish hamda ularning hajmida yuz beradigan fizik jarayonlarni tushuntirish imkonini bergan;

kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali temoelektrik material olishda olingan ilmiy natijalari Qirg'iziston respublikasi Osh Davlat texnologiyalar universiteti "Fizika va energo mashinasozlik" kafedrasida ilmiy laboratoriyasi va ilmiy ishlarida foydalanilgan (Qirg'iziston respublikasi Osh Davlat texnologiyalar universitetining 2022 yildagi 10 febraldagi № 04-02/22 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy natijalardan foydalanish kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirish yo'li bilan polikristal kremniy va temoelektrik materiallar olishning optimal rejimini aniqlash, harorat o'zgarishi jarayonida polikristal tuzilmalar donadorliklararo chegara sohalarida zaryad ko'chish jarayonlarini va temoelektrik xarakteristikalarini aniqlash imkonini bergan.

**Dissertatsiya ishining natijalari** 2 ta xalqaro va 11 ta respublika miqyosida ilmiy jurnallarda va konferensiyalarda ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 11 tasi mahalliy, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. 1 ta foydali modelga O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi patent guvohnomasi olingan. 1 ta monografiya chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matni 120 betda ifodalangan.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoning holati va poli-Si hamda uning hajmidagi donadorliklararo chegaralarining funksional xarakteristikalarini yaxshilash тенденциялари**» deb nomlangan birinchi bobida muammoning holati, kremniy zarrachalari asosida **poli-Si olish texnologiyalari, uning hajmida** donadorliklararo chegara hosil bo'lish mexanizmlari, elektron holatlari, ularning **poli-Si** elektrofizik va optik xossalariga ta'siriga oid adabiyot ma'lumotlari sharhi keltirilgan. Bunday tuzilmalarning mikro-elektronika, fotoenergetika va temoelektrik materiallar yaratishda qo'llanish usullari va muammolarini taxliliga oid tadqiqot natijalari, ular asosida mavzu muammosining qo'yilishi yoritib berilgan. Mavjud ma'lumotlarning nazariy va eksperimental tahlili natijasida vazifalarning qo'yilishi shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Amaliy va nazariy tadqiqot metodlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida qo'llanilgan metodlar tavsiflari hamda mohiyati yoritilgan. Hususan, kukunli texnologiyasi asosida kremniy zarrachalarini tayyorlash, ularni quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish orqali polikristal kremniy olish

texnologiyasini ishlab chiqish, kremniy zarrachalari va polikristal kremniy namunalarning mikrotuzilmasi va morfologiyasini, elektrofizik va termoelektrik xossalarni aniqlash metodlari va tavsiflari keltirilgan. Kremniy zarrachalarini olish uchun kukunli texnologiyadan foydalanilgan. An'anaviy kukunli texnologiyasidan farqli ravishda kremniy zarrachalarini tayyorlash datallari issiqqa bardosh, tarkibida metal birikmalari bo'lmagan keramik materiallardan tashkil topgan. Bu kremniy zarrachalarini tashqi muhitdan kirib qoluvchi turli kirishmalar bilan ifloslanmasligini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu usul 0,5 mikrometrgacha kremniy zarrachalarini tayyorlash imkonini beradi. Fokusidagi temperatura  $1500^{\circ}\text{C}$  ga teng "Quyosh sandoni" konstruksiyasi yaratilgan va uning yordamida kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan biriktirish usuli ishlab chiqildi. Ushbu usulda istalgan shakldagi dielektrik korpus taglikdan foydalanish mumkin (1-rasm). Dastlab 70 foizli etilspirti yordamida tayyorlangan kremniy zarrachalari qorishmasi (2) taglikka (1) solinadi va qo'l yordamida uncha katta bo'lmagan kuch bilan bosiladi, natijada kremniy zarrachalari taglik shaklini oladi.




**1-rasm. Kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib biriktirish sxemasi.**

Bunda kremniy zarrachalari qorishmasi qalinligi  $2,5\div 3$  mm.dan oshmasligi zarur. Aralashma qalinligi  $2,5\div 3$  mm.dan kam bo'lganda granulalar birikishi o'rniga suyuqlanish darajasi ortadi, aksincha, undan yuqori bo'lganda esa hajm bo'ylab temperatura bir me'yorda taqsimlanmaydi. Temperaturalar farqi xisobiga sirt sohalarida birikish yuqori aksincha, ostki qismida birikish sust bo'ladi. Quyosh nurlari ( $h\gamma$ ) bilan qizdirib biriktirish ham o'ziga xos jarayonlardan iborat. Quyosh nurlari ( $h\gamma$ ) dastasi perpendikulyar ravishda to'g'ridan-to'g'ri kremniy zarrachalariga tushadi va u quyosh sandoni fokusi bo'ylab harakatlantiriladi. Bunda kremniy zarrachalariga tushayotgan quyosh nurlari temperatura  $600^{\circ}\text{C}$  dan sekin astalik bilan  $1200^{\circ}\text{C}$  bo'lgan masofaga siljitib boriladi, bu jarayon  $5\div 7$  minutda bajariladi. Ushbu usulda an'anaviy usullardan farqli o'laroq, maxsus qurilmalar yordamida preslash yoki katta energiyalarda termik ishlov (spekaniya) berish jarayonlari umuman bajarilmaydi.

Kremniy zarrachalari va ular asosida tayyorlangan namunalarning mikrotuzilmasini o'rganish uchun elektron mikroskopdan foydalanilgan. Tyemperatura o'zgarishi jarayonida namunalarning elektrofizik xossalari an'anaviy ikki va to'rt zondli hamda Vander-Pau usullari modernizatsiya qilingan tajriba qurilmalari va metodlaridan foydalanilgan. Solishtirma qarshilik ( $\rho$ ), zaryad tashuvchilar harakatchanligi ( $\mu$ ) va konsentratsiya ( $n$ )ning temperaturaga bog'liqligi  $\sim 300\div 800$  K oraliqda temperatura ortishi va kamayishi jarayonida o'rganilgan. Namunalarning termoelektrik xossalari temperatura o'zgarishi jarayonida hosil

boʻlgan kuchlanish va tok kuchini hamda Zebbek effektini aniqlash asosida oʻrganilgan.

Dissertatsiyaning “**Kremniy zarrachalari va ular asosida olingan poli-Si mikrotuzilmasi va elektrofizik xossalari**” deb nomlangan uchinchi bobida kremniy zarrachalari va ular asosida olingan poli-Si mikrotuzilmasi va morfologiyasi, donadorlik va donadorliklararo chegara sohalarining hosil boʻlish mexanizmlari, ularning zaryad koʻchish jarayonlariga taʼsiri va ularni tushuntirish mexanizmlari keltirilgan. Tadqiqot natijalari koʻrsatadiki, kremniy zarrachalarini quyosh nurlari bilan qizdirib olingan polikristal kremniy ikki strukturali tuzilishga ega boʻlib, quyosh nurlari tushgan (*a*) va tushmagan (*b*) sirt sohalar mikrotuzilmasi bir-biridan farq qilishi aniqlandi (2-rasm). Rentgen spektral taxlil (*c*) natijalari koʻrsatadiki, namuna har ikki tomoni 10÷20 mkm boʻlgan donadorliklar Si atomlaridan iborat boʻlib, kremniy zarrachalari va uning asosida poli-Si olish jarayonida tashqi muhit tomonidan begona kirishma atomlari kirib qolmasligi aniqlandi.




**2-rasm. Namuna mikrofotografiyasi va rentgen spektral xarakteristiksi.**

Quyosh nurlari tushgan (*a*) sirt sohada va tushmagan (*b*) sirt sohalar mikrotuzilmasi bir-biridan farq qilishi kukunli texnologiya asosida tushuntirildi. Kukunli texnologiyadan maʼlumki, termik ishlov berish kukunlash uchun foydalanilgan kristalning erish temperaturasidan masalan, kremniy uchun kremniyning erish temperaturasidan 10÷20 % pastroq boʻlgan temperaturada bajariladi. Masalan, kremniyning erish temperaturasi ~1420 °C ga teng boʻlib, u asosida olingan plastinalarga ~1250 °C da termik ishlov berish talab qilinadi<sup>3</sup>. Buning asosiy sababi kukunlash jarayonida kremniy zarrachalarining qizishi natijasida yetarli darajada energiya bilan taʼminlanishidir. Bu mexanizm quyosh nurlari tushmagan (*b*) sirt soha uchun ham oʻrinlidir. Ushbu sohada temperatura past boʻlgani uchun kremniy zarrachalari birikishi nisbatan dagʻalroq boʻladi. Bu oʻz navbatida quyosh nurlari tushgan (*a*) va (*b*) sirt soha mikrostrukturasi bir-biridan farq qilishiga olib keladi. Huddi shunday holni namunalarning elektrofizik xossalari oʻrganishda olingan natijalarda ham kuzatildi.

3-rasmda  $\rho$ ,  $n$  hamda  $\mu$  larining temperaturaga bogʻliqligi keltirilgan. Taʼkidlash joizki,  $T \sim 300$  K da namunaning (*a*) sirt sohasi  $\rho \sim 191,9 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ ,

<sup>3</sup>Olimov L.O, Abdurakhmanov B.M, Teshaboev A. 2014. Influence of alkali metal atoms on transport of charge carriers in the between grain boundaries of polycrystalline silicon. *J. Material Science*, 1 14

$n \sim 3,11 \cdot 10^{18} \text{ sm}^3$ ,  $\mu \sim 0,025 \text{ sm}^2/\text{Vs}$ ; (b) sirt sohasi  $\rho \sim 452 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ ,  $n \sim 5,52 \cdot 10^{17} \text{ sm}^3$ ,  $\mu \sim 0,025 \text{ sm}^2/\text{Vs}$  qiymatlarni qabul qiladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, har ikki (a) va (b) sirt sohada  $\mu$  kamayishi (3 chiziq) aniqlandi. Biroq, (a) va (b) sirt sohada  $\rho$  va  $n$  ning temperaturaga bog'liqligi bir-biridan farq qiladi. Masalan, (a) sirt sohada  $T \sim 300 \div 350 \text{ K}$  da  $\rho$  ortsa,  $n$  kamayyadi (a-b holat),  $T \sim 350 \div 550 \text{ K}$  da  $\rho$  kamaysa,  $n$  ortib boradi (b-c holat). So'ngra, 50 K oralig'ida har ikki parametr nisbatan turg'un o'zgaradi (1 chiziq).  $T \sim 600 \div 710 \text{ K}$  da  $\rho$  yana ortsa,  $n$  775 K gacha kamayyadi (c-d holat).  $T \sim 710 \div 775 \text{ K}$  da  $\rho$  ning (d-e holat) sarkab o'zgarishi aniqlandi. Aksincha, namunaning (b) sirt sohada  $\rho$   $T \leq 575 \text{ K}$  da ortsa (a'-b' holat),  $n$  kamayyadi (a'-b'-c' holat), temperatura ortishining keyingi bosqichlarida (b'-c' holat)  $\rho$  kamaysa,  $n$  (c'-d' holat) ortib boradi (2 chiziq). Tadqiqot natijalarini 4-rasmda keltirilgan namunaning mikrotuzilma modeli va zonalar diagrammasi asosida quyidagicha tushuntirish mumkin.



3-rasm. Solishtirma qarshilik (a), zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va harakatchanligining (b) temperaturaga bog'liqligi.

4-rasmda mos holda, namunaning (a) va (b) sirt sohalarini mikrostruktura tuzilishi modeli va donadorliklararo chegara sohasi zonalar diagrammasi (c) tasvirlangan. Namuna tuzilishini shartli ravishda, uning donadorligini (1) va donadorliklararo chegara sohalarini (2) bilan belgilash mumkin. Polikristal yarimo'tkazgichda zaryad ko'chish jarayoni asosan donadorliklararo chegara sohalarini bilan izohlanadi<sup>4</sup>.

Donadorliklararo chegara sohalarida kirishmali holat va nuqsonlar turli  $E_{ip}$  energetik sathli rekombinatsiya markazlaridan iborat lokallashgan tuzoqlarni hosil qiladi (4c-rasm). Ular donadorliklararo chegaralarida lokallashgan holatda bo'lib, to'siq effektini hosil qiladi. Lokallashgan tuzoqlarda zaryad tashuvchilar ushlanishi va qayta ozod bo'lishi potensial to'siq balandligi ( $\phi$ )ning, bu esa o'z navbatida  $\rho$  ning o'zgarishiga olib keladi. Setto modeliga asosan  $\rho$  uchun quyidagi ifodani yozish mumkin:

<sup>4</sup>Поликристаллические полупроводники. Физические свойства и применения: Пер. с англ. // Под.ред. Харбек Г. -М., «Мир». 1989-344 с., ил.

$$\rho = \frac{k}{q\langle a \rangle A^* T} \exp(q\phi/kT) \quad (1)$$


bu yerda,  $q$  – elektron zaryadi,  $k$  – Bolsman doimiysi,  $\langle a \rangle$  - donadorlik o‘lchami,  $A^*$  – Richardsonning effektivlik doimiysi,  $T$  – temperatura.

Donadorliklararo chegara sohalari  $\phi$  lokallashgan tuzoqlarda ushlanayotgan zaryadlar miqdori ( $Q_i$ )ga bog‘liq:

$$\phi = \frac{Q_i^2}{8\epsilon\epsilon_0 q N_G} \quad (2)$$

bu yerda  $N_G$  – elektrik jihatdan faol bo‘lgan legirlangan kirishmalar konsentratsiyasi,  $\epsilon$  va  $\epsilon_0$  mos holda muhitning nisbiy va vakuumning dielektrik singdiruvchanligi.

(2) ifodadan ko‘rinadiki, donadorliklararo chegara sohadagi (2 - soha, 4s-rasm)  $Q_i$  ning ortishi  $\phi$  ning, bu esa o‘z navbatida  $\rho$  ning ortishiga olib keladi. Bizning holda,  $\rho$  ning ortishi (a) va (b) sirtida lokallashgan tuzoqlar paydo bo‘lish tabiatiga bog‘liq. Dastlab, (a) sirt soha mikrostuzilma modeli va zaryad ko‘chish jarayonlarini ko‘rib chiqaylik. Tyemperatura ortishining dastlabki bosqichida,  $T \sim 300 \div 350$  K da  $E \sim 0,15$  eV



**4-rasm. Namunaning mikrotuzilish modeli va zaryad ko‘chish jarayonini**

va  $E \sim 0,17$  eV energetik sathlar paydo bo‘ladi<sup>5</sup>. Ularda ushlangan zaryad tashuvchilar miqdori  $Q_i$  ning ortishi  $n$  ning kamayishiga va  $\rho$  ning ortishiga olib keladi (3-rasm, a-b holat).  $T \sim 350 \div 550$  K da  $E_{ip}$  sathli lokallashgan tuzoqlar konsentratsiyasiga nisbatan valent zonadan ajralib chiqqan  $n$  ortib boradi. Bu  $\rho$  ning kamayishiga olib keladi (b-c sohada).  $T \sim 550 \div 600$  K  $n$  hamda lokallashgan tuzoqlar konsentratsiyasi tenglashadi va bu holda  $\rho$  turg‘un o‘zgaradi.  $T \sim 600 \div 710$  K da  $E_{ip}$  sathli lokallashgan tuzoqlar konsentratsiyasi yana  $n$  ga nisbatan ortadi. Bunda,  $Q_i$  bilan  $\rho$  ortadi (c-d holat).  $T \sim 710 \div 775$  K da yangi  $E_{ip}$  sathli rekombinatsiya markazlarining namoyon bo‘lishi  $\rho$  ning (d-e holat) sarkab o‘zgarishiga olib kelayotgan bo‘lishi mumkin.

(b) sohada donadorliklararo chegara kengligi (a) sirt sohaga nisbatan kengroq bo‘lgani uchun bu sohada  $E_{ip}$  sathli lokallashgan tuzoqlar miqdori hamda hosil bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki,  $T \leq 575$  K da  $\rho$  ning ortishi (a'-b' holat) poli-Si<sup>6</sup> natijalarga mos keladi. Ya'ni,  $T \sim 300 \div 600$  K da ketma-

<sup>5</sup>L.O. Olimov. Polikristall kremniy donadorliklararo chegaralari: mikrotuzilmasi, zaryad holatlari va p-n - o‘tishlari. 01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi (fizika - matematika) doktorantlik disertatsiyasi. 2016 y.


<sup>6</sup>B.M. Abdurakhmanov, M.S Saidov, L.O Olimov. Electrophysical Properties of Solar Polycrystalline Silicon and Its n<sup>+</sup>-p Structures at Elevated Temperatures. Applied Solar Energy. 2008 vol. 44. №1, p.46÷52.

ket  $E_{ip1} \sim 0,15$  eV,  $E_{ip2} \sim 0,17$  eV,  $E_{ip3} \sim 0,36$  eV,  $E_{ip3} \sim 0,3$  eV sathli rekombinatsiya markazlarida ushlangan zaryad tashuvchilar miqdori  $Q_i$  ning ortishi  $T \sim 600 \div 710$  K da  $\rho$  ning ortishiga olib keladi ( $a'-b'$  holat). Huddi shu temperatura oralig'ida  $n$  kamayishi ( $a'-b'-c'$  holat) hamda ma'lum temperaturalarda sakrab o'zgarishi mulohazalarni tasdiqlaydi. Ya'ni,  $T \sim 325 \div 400$  K dagi sakrab o'zgarishi  $E_{ip1} \sim 0,15$  eV,  $E_{ip2} \sim 0,17$  eV hamda  $E_{ip3} \sim 0,36$  eV sathlarning paydo bo'lishiga mos keladi. Temperatura ortishining keyingi bosqichlarida  $E_{ip}$  energetik sathli lokallashgan tuzoqlar ionlanishni boshlaydi. Natijada, bir vaqtning o'zida zaryad tashuvchilar A sohadan V sohaga donadorliklararo chegara sohalari orqali hamda donadorliklararo chegara sohalari bo'ylab ko'chadi (5b-rasm). Zaryad tashuvchilarning lokallashgan tuzoqlar bo'ylab ko'chishi  $J_{ss}$  ning paydo bo'lishiga olib keladi (5c-rasm).  $J_{ss}$  tok tuzoqlar to'liq o'tkazuvchanligi ( $Y_{ss}$ ) ya'ni, tuzoqlarning donadorlik sirtlari va energiyasi bo'yicha taqsimlanishiga bog'liq bo'lgan to'liq o'tkazuvchanlik hamda potensial to'siq balandligi ( $\delta\varphi$ ) ga bog'liq.

$$J_{ss} = Y_{ss} \delta\varphi \quad (3)$$

Bu holda,  $\varphi$  kamaymaydi,  $Y_{ss}$  ortadi. Bizning holda,  $\rho$  (3-rasm,  $b'-c'$  holat) kamayishi tuzoqlar o'tkazuvchanligi<sup>7</sup> natijalariga mos keladi. Lokallashgan tuzoqlar ionlanishi jarayonining ortishi esa  $n$  ning ortishiga (4-rasm, 2 chiziq,  $c'-d'$  holat) olib keladi.

Ko'rib o'tilgan mulohazalarga oydinlik kiritish uchun har ikki (a) hamda (b) sirt sohalarida  $\varphi$  ning temperaturaga bog'liqligi o'rganildi. 5-rasmda  $\varphi$  ning temperaturaga bog'liqligi keltirilgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, har ikki sirt sohalarida  $\varphi \sim 0,39 \div 1,0$  eV oraliqlarida o'zgarishi aniqlandi.  $T \leq 400$  Kda  $\varphi$  ning o'zgarishi deyarli bir-biriga mos keladi.  $T \geq 400$  Kda esa (a) sirt sohaga nisbatan (b) sirt sohada  $\varphi \sim 0,061$  eV farq bilan o'zgaradi. Bizning fikrimizcha, temperatura ortishi bilan bir vaqtning o'zida ikki xil jarayon yuz beradi. Ya'ni, (b) sirt sohada  $E_{ip}$  energetik sathlardagi tuzoqlar ionlashadi, natijada zaryad tashuvchilar tuzoqlar bo'ylab ko'chadi. Donadorliklararo chegara sohalari orqali o'tayotgan zaryad tashuvchilar bo'shab qolgan  $E_{ip}$  energetik sathlarda ushlanadi.




5-rasm. Potensial to'siq balandligining temperaturaga bog'liqligi: 1 va 2 mos holda (a) hamda (b) sirt sohalari.

